

FAXRUDDIN ALI SAFIYNING “ODOB UL-AS’HOB” ASARIDA SUHBAT TARBIYASI MASALALARINING YORITILISHI

To‘rabayev Orif Abdumajid o‘g‘li Guliston davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

THE ELUCIDATION OF THE ETHICS OF CONVERSATION IN FAKHRUDDIN ALI SAFIY’S WORK “ODOB UL-AS’HAB”

Turabaev Orif Abdumajid o‘g‘li, Lecturer at Gulistan State Pedagogical Institute

ОСВЕЩЕНИЕ ВОПРОСОВ ВОСПИТАНИЯ В БЕСЕДЕ В ПРОИЗВЕДЕНИИ ФАХРУДДИНА АЛИ САФИЯ “ОДОБ УЛ-АСХАБ”

Турабаев Ориф Абдумаджидович, преподаватель Гулистанского государственного педагогического института

Annotatsiya: Mazkur maqolada Faxruddin Ali Safiyning hayoti va ijodiga doir ishonchli manbalar asosida tahlil olib boriladi. Shuningdek, uning ilmiy merosi, xususan, o‘z zamonasida tutgan o‘rni, asarlarining tematik yo‘nalishlari va ularning bugungi ilm-fan bilan qanday aloqadorligi chuqur yoritiladi.

Kalit so‘zlar: “Odob ul-as’hab”, tasavvuf falsafasi, fosiq, bayt, suhbat tarbiyasi, Rashahot ayn al-hayot, empatik aloqa, ixlos, vafodorlik, sabr.

Annotation: This article analyzes the life and work of Fakhruddin Ali Safiy based on reliable sources. It also provides an in-depth exploration of his scientific heritage, particularly his role in his time, the thematic directions of his works, and their relevance to contemporary science.

Keywords: “Odob ul-as’hab”, philosophy of Sufism, fosiq, bayt, educational value of conversation, Rashahot Ayn al-Hayot, empathic communication, sincerity (ikhlos), loyalty, patience.

Аннотация: В данной статье проводится анализ жизни и творчества Фахрэддина Али Сафия на основе достоверных источников. Кроме того, подробно освещается его научное наследие, в частности, его роль в эпоху, тематические направления его произведений и их актуальность в контексте современной науки.

Ключевые слова: «Адоб-уль асхаб», философия суфизма, фосик, байт, воспитание через беседу, «Рашахот айн ал-хайот», эмпатическая коммуникация, ихлас, верность, терпение.

KIRISH. XV-XVI asrlarda Markaziy Osiyo va Xuroson hududida yashab ijod qilgan mutafakkirlar va ularning ilmiy-ma’naviy merosi bugungi kunda o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. Xususan, XV asrning ikkinchi yarmi va XVI asr boshlarida yashagan Faxruddin Ali Safiy nafaqat tasavvuf ahli yoki adabiyot vakillari orasida, balki tarixchilar, faylasuflar va mutafakkirlar e’tiborini tortayotgan yirik siyolardan biridir. Uning axloqiy-ma’naviy tarbiya borasidagi qarashlari nafaqat o‘z

davri uchun balki bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan desak adashmagan bo‘lamiz.

Faxruddin Ali Safiy o‘z faoliyatini nafaqat yozuvchi yoki tarjimon sifatida, balki mutasavvif, voiz, axloqshunos sifatida ham keng ko‘lamda olib borgan. U Abu Hamid G‘azzoliy, Abdurahmon Jomiy, Xoja Ubaydulloh Ahror kabi mashhur allomalarning ta’siri ostida shakllangan bo‘lib, ayni paytda mustaqil falsafiy qarashlarga ega bo‘lgan. Ayniqsa, uning “Odob-ul as’hab” asari nafaqat diniy asar sifatida, balki axloqiy tafakkur namunasasi,



<https://orcid.org/0009-0002-6968-7253>

oriftorabayev@gmail.com

ijtimoiy qatlamlar tafakkurining aks sadosi sifatida ham alohida ahamiyatga ega.

ASOSIY QISM. Faxruddin Ali Safiy tomonidan yozilgan “Odob-ul as’hob” asari, dinning birodarlik ruhini tarbiyalash, ixlos, poklik va haq yo‘liga yetaklashda beqiyos manbadir. Asarning dastlabki qismida tasavvufda alohida o‘rin tutuvchi suhbat madaniyatiga qaratilgan. Bu, nafaqat ruhiy poklanishning, balki islomiy jamiyatda axloqiy-ijtimoiy uyg‘unlikning ham muhim vositasi sifatida talqin etiladi.

Faxriddin Ali Safiy takidlaganidek “Suhbat — dinning o‘qidir”¹ ya’ni solih insonlar bilan birga bo‘lish, islomiy dunyoqarashda qalb tarbiyasining, ichki yangilanishning eng muhim vositalaridan biri sifatida qaraladi. Faxruddin Ali Safiy bu mavzuni tasavvuf doirasida, chuqur falsafiy va ma’naviy tahlillar asosida yoritadi. U suhbatni faqatgina insonlararo muloqot shakli, deb emas, balki qalblarning uyg‘unlashuvi, niyatlarining tozalashuvi, ruhning yuksalishi yo‘li sifatida ko‘radi. “Odob-ul as’hob” asarida do‘stlik va suhbat madaniyatini ijtimoiy axloqiy qadriyat darajasiga ko‘tariladi.

Ali Safiyning tahliliga ko‘ra, inson kimlar bilan suhbatda bo‘lishi, kimiarning so‘ziga qulqoq tutishi, qalbida qanday odamlarni yaqin tutishi, uning ruhiy maqomini belgilaydi.

Shoir aytadi:

*Suhbat solih seni solih etar,
Suhbat fosiq seni fosiq etar,
Suhbat nodon seni nodon etar².*

Mazkur uch misrali bayt, tashqi jihatdan sodda va xalqona ruhda bo‘lsa-da, mazmunan chuqur axloqiy va tasavvufiy g‘oyalarni ifodalaydi. Bu baytda shoir inson shaxsiyati va ruhiy kamoloti ustida jamiyat va atrofdagi insonlar, ayniqsa u bilan doimiy muloqotda bo‘lgan kishilarining ta’siri nihoyatda kuchli ekanligini ta’kidlaydi.

Birinchi misrada “Suhbat solih seni solih etar” degan ibora orqali shoir solih, ya’ni yaxshi axloqli,

dindor, pokiza niyatli inson bilan do‘stlik va muloqot insonni ham shu holatga olib borishini bildiradi.

Ikkinci misrada esa “Suhbat fosiq seni fosiq etar” degan jumla orqali, axloqan buzuq, din yo‘lidan og‘ishgan, nojoiz ishlar qiluvchi kimsalar bilan do‘stlashish va ularga ergashish insonni ham bu yo‘lga boshlashi ta’kidlanadi. Bu, aslida, salbiy ijtimoiy muhitning shaxsiy kamolotga zararli ta’siri haqida ogohlantiruvchi mezondir.

Uchinchi misra “Suhbat nodon seni nodon etar” esa ilm-fan, hikmat va tafakkurdan yiroq, fahmsiz va bilimsiz kishilar bilan birga yurish oqibatida inson aqliy va ruhiy jihatdan tanazzulga uchrashi mumkinligini bildiradi. Bu jumla tafakkur madaniyatining qadriyat sifatida qadimdan yuksak baholanganligini ko‘rsatadi.

Asarda yana shunday fikr shunday bayon etiladi “Avliyolar bilan bir lahma suhbat qilish, Yuz yil ibodat qilishdan afzal”.³ Bu holat, darhaqiqat, tasavvufdagi “suhbat tarbiyasi” konsepsiyasini yoritadi. Ali Safiyning qarashlarida, suhbatni chin ma’nodagi insoniy yetuklikka eltuvchi manba sifatida baholashga intilish mavjud. “Odob-ul as’hob” asarida do‘stlar o‘rtasidagi samimiylilik, ochiqlik va to‘g‘irlik muhim mezon sifatida ilgari suriladi. Asar muallifi bu jihatlarni Qur‘on oyatlari, payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning hayotidan misollar, hadislar, tasavvufiy ustozlarning hikmatlari bilan mustahkamlaydi. Ayniqsa, solihlar bilan birga bo‘lish orqali ilohiy fazilatlar singishi, bu dunyoda kamyob ne’mat sifatida ko‘rsatiladi.

Misollar:

Temir ilohiy suhbat bilan kuydi, olovga aylandi.

Mirob giyohlar bilan suhbat qildi — gulzorga aylandi.

Bahor shamoli bilan suhbatlashdi — iforli saboga aylandi.

Tuproq bilan suhbat qilganlar — barakali daraxtlar yetishtirdi.

Ammo g‘aflatdagi arif, suhbatdan yiroqda bo‘lib, bexabar qoldi.⁴

۱ هجري ۹۱۰، (دوسستان آداب) الاصحاب ادب، صفي على فخرالدين مولانا عبدالله خواجه انتشارات: ناشر، مجدد نقشبندی عبدالله سید: مترجم، قمری، (میلادی ۲۰۱۱ با مطابق) شمسی هجری ۱۳۹۰ زمستان: اول چاپ، انصاری صفحه ۲۷

۲ مولانا فخرالدين على صفي، ادب الاصحاب (آداب دوسستان)، هجري ۹۱۰ قمری، مترجم: سید عبدالله نقشبندی مجددی، ناشر: انتشارات خواجه عبدالله انصاری، چاپ اول: زمستان ۱۳۹۰ هجری شمسی (مطابق با ۲۰۱۱ میلادی)، صفحه ۲۷

۳ هجري ۹۱۰، (دوسستان آداب) الاصحاب ادب، صفي على فخرالدين مولانا عبدالله خواجه انتشارات: ناشر، مجدد نقشبندی عبدالله سید: مترجم، قمری، (میلادی ۲۰۱۱ با مطابق) شمسی هجری ۱۳۹۰ زمستان: اول چاپ، انصاری صفحه ۲۸

۴ هجري ۹۱۰، (دوسستان آداب) الاصحاب ادب، صفي على فخرالدين مولانا عبدالله خواجه انتشارات: ناشر، مجدد نقشبندی عبدالله سید: مترجم، قمری، (میلادی ۲۰۱۱ با مطابق) شمسی هجری ۱۳۹۰ زمستان: اول چاپ، انصاری صفحه ۲۷

Ushbu misralar bir qarashda poetik ifoda bo‘lib ko‘rinsa-da, ularning har biri tasavvuf tafakkurining asosiy g‘oyalarini-ruhiy uyg‘onish, solihlar bilan muloqot, ichki o‘zgarish, qalb tarbiyasi va Alloha yaqinlikka intilish kabi tushunchalarni o‘zida mujassam etadi. Har bir tabiat obrazi orqali inson qalbi va uning ruhiy kamolot yo‘li ramziy tarzda ifodalangan. Bu esa, “suhbat tarbiyasi”ni nazariy emas, balki hayotiy zarurat sifatida ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, “Odob-ul as’hob” da do‘slik va suhbatning zarur shartlari sifatida ixlos, vafodorlik, sabr, sadoqat, rahm-shafqat, go‘zal muomala, o‘zini past tutish (tavozu’) kabi fazilatlar sanab o‘tiladi. Suhbatni o‘rganish, do‘slikda ma’naviy o‘sish uchun qulay muhit yaratish, so‘zning tarbiyaviy kuchini anglash bu asar orqali yetkaziladigan asosiy g‘oyadir.

Faxruddin Ali Safiyning “Odob-ul as’hob” asarida bayon etilgan suhbat madaniyati va ma’naviy yondashuvlar bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini saqlab qolgan. Garchi davr o‘zgargan, texnologiya rivojlangan bo‘lsa-da, inson ruhiyati va jamiyatdagi ma’naviy ehtiyojlar doimiy ahamiyatga ega. Ayniqsa, hozirgi shiddatli raqamli axborot oqimida insonlararo aloqalar sohtalashib, chin dildan suhbat, samimiy muloqot, ma’naviy bog‘liqlik o‘z qadrini yo‘qotayotgani kuzatilmogda.

Bugungi zamonaviy ilmiy tadqiqotlar ham shuni tasdiqlaydi-ki, insonning ruhiy salomatligi, ichki muvozanati, axloqiy barqarorligi ko‘p jihatdan uning qanday odamlar bilan aloqada bo‘lishiga bog‘liq. Bu jihatdan Ali Safiy ta’kidlaganidek, “Kim Allohni ko‘p zikr qiluvchilar bilan birga bo‘lsa, u Allohnинг zikrida bardavom bo‘ladi. Kim yomonlar bilan bo‘lsa, u ham oxir-oqibat ularning yo‘liga tushadi”⁵ degan hikmat zamonaviy dunyomizga mos tushadi. Yaxshi do‘slik va foydali suhbat shaxsni ruhiy jihatdan tiklab, ijobiy psixologik holatni mustahkamlaydi.

Zamonaviy jamiyatda suhbat faqat og‘zaki muloqot emas, balki kommunikatsianing barcha

shakllarida — yozma, vizual, raqamli vositalar orqali ham yuz beradi. Ammo bu vositalar o‘rtasida eng barakali, eng ta’sirchan muloqot -bu halol niyat, sadoqatli yurak va samimiyat asosida kechadigan yuzma-yuz suhbatdir. Ali Safiy o‘z asarida bunday suhbatni qalbdan qalbga o‘tuvchi nur sifatida talqin etgan bo‘lsa, hozirgi kun psixologiyasida bu “empatik aloqa”⁶ deb nomlanadi.

Xulosa. Muallif tomonidan bayon etilgan hikmatlar, misralar va iqtiboslar bir qarashda sodda ko‘rinsa-da, ularning har biri insoniy kamolot sari yetaklovchi g‘oyalarni mujassam etadi. Ayniqsa, “suhbat solih seni solih etar” degan mazmun bugungi kunda insonning ijtimoiy muhit va atrofdagi kishilar orqali qanday ruhiy holatga tushishi mumkinligini ochib beradi.

Zamonaviy dunyoda tezkor axborot oqimi, raqamli aloqalar va yuzaki muloqotlar sharoitida Faxruddin Ali Safiyning bu boradagi qarashlari yanada dolzarb tus oladi. Suhbatni inson qalbi bilan yuritiladigan samimiy aloqaga aylantirish, ijtimoiy birlik, mehr-oqibat va axloqiy fazilatlarni qayta tiklashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

- فخرالدین علی صفائی ادب الاصحاب (آداب) دوستان. (مترجم: سید عبدالله نقشبندی). – انتشارات خواجه عبدالله انصاری، ۱۳۹۰ هجری شمسی (۲۰۲۱ میلادی). (–)
- Kholnazarova, D. (2022). The role of the education system in the development of legal culture in students. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 10(1).
- Tursinkulov, N. (2022). Oliy ta’lim tizimini isloh qilish davr talabi: muammo va yechimlar. Архив научных исследований, 2(1).
- Сайдкулов, Н. А. (2020). Ёшлар сиёсий маданиятини креатив ёндашув асосида ривожлантириш масалалари. Международный журнал Консенсус, 1(1).
- Akramkulovich, S. N. (2024). Theories of human capital development. *Science and innovation*, 3(Special Issue 24), 829-832.

⁵ ميلادي ۱۳۹۰ با مطابق (شمسی هجری ۱۴۹۰) زمستان: اول چاپ، انصاری صفحه ۲۹

⁶ مولانا فخر الدین علی صفائی، ادب الاصحاب (آداب) دوستان، ناشر: انتشارات خواجه عبدالله قمری، مترجم: سید عبدالله نقشبندی مجده‌ی، ناشر: انتشارات خواجه عبدالله

انصاری، چاپ اول: زمستان ۱۳۹۰ هجری شمسی (مطابق با ۲۰۲۱ میلادی) صفحه ۲۷

⁶ Mark H. Davis. Measuring Individual Differences in Empathy: Evidence for a Multidimensional Approach. Journal of Personality and Social Psychology 1983. Vol. 44. No. 1113-126